e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/30myfy44

AVRANGZEB SAROYIDA TURON ELCHILARINI QABUL QILISH TARTIBI VA DIPLOMATIK IYERARXIYA MASALASI (1658–1707)

Karimov Azizbek Avazboy o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti, tayanch doktorant.
e-mail: karimovazizbek629@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0003-3033-6621

Annotatsiya.
Maqolada Avrangzeb Olamgir (1658–1707) saroyida Buxoro va Balx elchilarini qabul qilish marosimlari, ularga taqdim etilgan in’omlar va xil’atlar hamda ushbu marosimlarda namoyon bo‘lgan diplomatik iyerarxiya masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot «Maosiri Olamgiriy», «Olamgirnoma», «Mir’ot ul-olam» kabi Boburiylar davri tarixiy manbalari, shuningdek, F. Bernye va J. B. Tavernening guvohliklariga asoslanadi.
Kalit so‘zlar: Avrangzeb, Abdulazizxon, Subhonqulixon, elchilik, diplomatik protokol, xil’at, in’om, Bernye, «Maosiri Olamgiriy», «Olamgirnoma».

ПОРЯДОК ПРИЁМА ПОСЛОВ ТУРАНА ПРИ ДВОРЕ АУРАНГЗЕБА И ВОПРОСЫ ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ИЕРАРХИИ (1658–1707)

Каримов Азизбек Авазбой угли
Наманганский государственный педагогический институт, докторант (PhD).

Аннотация.
В статье анализируются церемонии приёма послов Бухары и Балха при дворе Аурангзеба Аламгира (1658–1707), преподносимые им дары и почётные одеяния (хилъаты), а также вопросы дипломатической иерархии, отражённые в данных церемониях. Исследование основано на исторических источниках эпохи Великих Моголов, таких как «Маасир-и Аламгири», «Аламгир-наме», «Мират аль-алам», а также свидетельствах Ф. Бернье и Ж. Б. Тавернье.
Ключевые слова: Аурангзеб, Абдулазиз-хан, Субханкули-хан, посольство, дипломатический протокол, хилъат, дар, Бернье, «Маасир-и Аламгири», «Аламгир-наме».

THE PROTOCOL FOR RECEIVING TURANIAN ENVOYS AT AURANGZEB’S COURT AND THE QUESTION OF DIPLOMATIC HIERARCHY (1658–1707)

Karimov Azizbek Avazboy o‘g‘li
Namangan State Pedagogical Institute, PhD Student.

Abstract.
This article examines the ceremonies for receiving envoys from Bukhara and Balkh at the court of Aurangzeb Alamgir (1658–1707), the gifts and robes of honor (khil‘at) presented to them, and the diplomatic hierarchy reflected in these ceremonies. The study draws on historical sources from the Mughal period, including Maasir-i-Alamgiri, Alamgirnama, and Mir’at al-Alam, as well as the eyewitness accounts of François Bernier and Jean-Baptiste Tavernier.
Keywords: Aurangzeb, Abdulaziz Khan, Subhanquli Khan, embassy, diplomatic protocol, khil‘at, gifts, Bernier, Maasir-i-Alamgiri, Alamgirnama.

Kirish. Diplomatik marosim o‘rta asrlar Sharq davlatlarida siyosiy munosabatlarning o‘ziga xos tilini tashkil etgan: elchini kim kutib olgani, uning hukmdor oldida qanday salom bergani, qayerda o‘tirgani va qanday in’om olgani ikki davlat o‘rtasidagi maqom munosabatlarini ifodalagan. Boburiylar saroyidagi elchilik marosimlari temuriylar an’analariga borib taqaladi. Temur saroyida elchilarni mirzolar qo‘ltig‘idan tutib, hukmdor huzuriga olib borgani [1, P. 123] va ziyofatda elchilarning o‘rni hukmdorning ularga munosabatini ko‘rsatgani [1, P. 124] XIX asr Yevropa adabiyotida ham qayd etilgan. Hind-musulmon siyosiy adabiyotida esa elchining nasabi, xulqi va nutqi, yuboriladigan sovg‘alar tarkibi hamda ahdnoma tuzish tartibi maxsus me’yorlar bilan belgilangan edi.

Avrangzeb Olamgir (1658–1707) davri Buxoro–Boburiylar munosabatlari tarixida eng ko‘p hujjatlashtirilgan bosqichdir. Bu davrning rasmiy tarixi bo‘lgan «Maosiri Olamgiriy» davlat arxivi materiallari asosida yozilgan bo‘lib, elchilarning kelish-ketish sanalari va ularga berilgan in’omlar haqida aniq ma’lumot beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

«Akbardan Avrangzebgacha Mo‘g‘ul diplomatiyasi» mavzusidagi dissertatsiyada elchi chegaraga kelganda chegara hokimi saroydan ko‘rsatma olguncha kutishi, Eron elchisi Multonda, turk elchisi Suratda, turonlik elchi esa Kobulda qolishi tasvirlangan [2, P. 13]. Muallifning asosiy xulosasiga ko‘ra, Boburiy imperatorlari faqat Eron va Turkiya bilan teng huquqlilik asosida munosabatda bo‘lgan. V. Flinn Boburiylarning rasmiy tilida hatto Eron shohi ham «Shahanshoh» emas, «Eron voliysi» deb atalganini ko‘rsatadi. R. Folts esa Balx va Movarounnahrni qayta zabt eta olmagan Boburiylar o‘zbeklar ularning vassallari ekanligi haqidagi «uydirma»ni o‘ylab topganini, solnomalarda bu hududlarga nisbatan «viloyat» so‘zi ishlatilishini ta’kidlaydi [3, P. 128]. A. Burton Avrangzeb–Subhonqulixon munosabatlarini Eron omili bilan bog‘laydi [4,

P. 299]. O‘zbek tarixshunosligida T. Halimov Bernyening qabul marosimi haqidagi tavsifini va elchilarning sovg‘alarini qayd etgan [5, B. 86–87]. Biroq marosim unsurlarini Buxoro tomonining o‘z tasavvurlari bilan solishtirish masalasi hozirgacha maxsus o‘rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy usul, kontent-tahlil va miqdoriy solishtirish usullari qo‘llanildi. Elchilarga berilgan in’omlar miqdori bir manba doirasida (masalan, «Maosiri Olamgiriy»ning o‘zbekcha tarjimasi asosidagi ma’lumotlarda) solishtirildi, chunki turli manbalarda in’omlar hajmi turlicha hisoblangan bo‘lishi mumkin. Yevropa sayyohlarining guvohliklari Boburiylar solnomalari bilan qiyoslab tekshirildi va ularning madaniy nuqtayi nazari hisobga olindi. «Olamgirnoma» qo‘lyozmasidan olingan parchalar raqamli tasvir va varaq raqami bo‘yicha ko‘rsatildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Abdulazizxonning tabrik elchiligi (1661–1662) marosim tartibini tiklash uchun eng to‘liq materialni beradi. «Maosiri Olamgiriy»ga ko‘ra, Xo‘ja Xovand Mahmudning o‘g‘li Xo‘ja Ahmad 17-noyabrda Dehli atrofiga yetib kelgan. Uni Sayfxon peshvoz chiqib, imperator huzuriga boshlab kelgan. Elchi noma va tuhfalar — turkiy otlar, ikki o‘rkachli tuyalar va boshqa narsalarni taqdim etgan [6, P. 22]. Muhammad Kozimning «Olamgirnoma»sida elchi «do‘stlik va ulfatlik izhoridan iborat» noma bilan yuborilgani aytiladi va marosim — ostonani o‘pish, nomani topshirish — batafsil tasvirlanadi. Keyinroq elchi daryo bo‘yidagi ayvonda o‘tkazilgan majlisda ishtirok etgan. I. G‘. Nizomiddinov elchilik 1661-yil 27-noyabrda kelgani, rasmiy qabul esa 1662-yil 14-martda bo‘lganini va elchi qiymati qirq ming rupiyalik la’l keltirganini qayd etadi [7, C. 94]. Sanalardagi farq elchining poytaxt atrofiga kelishi va rasmiy qabul o‘rtasidagi vaqtni aks ettirishi mumkin. Bu masala hijriy sanalarni solishtirishni talab qiladi.

Shunday qilib, marosim quyidagi bosqichlardan iborat bo‘lgan: chegarada ko‘rsatma kutish, mehmondor tomonidan kutib olish (istiqbol), rasmiy qabulda hozir bo‘lish va noma topshirish, tuhfalarni ko‘rsatish, keyingi majlislarda ishtirok etish va nihoyat, xil’at hamda in’om bilan qaytishga ruxsat berish. Bu tartib Kinra tasvirlagan Shohjahon davri saroy amaliyotiga mos keladi: Rum, Eron va Turon elchilari nomalar va tuhfalar bilan kelib, «o‘z martabalariga ko‘ra» qabulda turishga ruxsat olgan [8, P. 113].

F. Bernye shu elchilikning bevosita kuzatuvchisi bo‘lgan. Uning yozishicha, urush tugagach, «o‘zbek tatarlari» shoshilinch ravishda Avrangzeb huzuriga elchilar yuborgan [9, P. 116]. Har bir elchiga zarbof to‘n, salla va kashtali belbog‘dan iborat sarupo berilgan, xonlarning tuhfalari esa lojuvard qutilari, uzun junli tuyalar, otlar va mevalardan iborat bo‘lgan [9, P. 118]. Avrangzeb tuhfalarni mubolag‘a bilan maqtagan va Samarqanddagi madrasa haqida savollar bergan [9, P. 119]. Eng muhimi, Bernye elchilar «qullikni eslatuvchi hindcha salom» uchun xo‘rlik his qilmaganini, o‘z mamlakatlari odatiga ko‘ra salom berish hamda maktubni amir vositachiligisiz topshirish imtiyozi esa faqat Eron elchilariga tegishli bo‘lganini yozadi [9, P. 119–120]. Boshqa bir o‘rinda u Avrangzeb Gollandiya elchisining maktublarini ham amir vositasida qabul qilganini va buni hurmatsizlik deb bo‘lmasligini, chunki o‘zbek elchilariga nisbatan ham shunday tartib qo‘llanilganini qayd etadi [9, P. 128].

Demak, protokol iyerarxiyasida Turon elchilari Yevropa savdo kompaniyalari elchilari bilan bir darajada, Eron elchilaridan esa pastda turgan. Shu bilan birga, Bernye ma’lumotlarini tanqidiy qabul qilish lozim: u elchilarni geografiyadan bexabar kishilar sifatida tasvirlaydi [9, P. 121], ularning dasturxoni va odatlarini yevropalik nuqtayi nazaridan bayon qiladi [9, P. 121–122]. Elchilarning Dehlida to‘rt oydan ortiq ushlab turilgani va ko‘plari kasallanib vafot etgani haqidagi ma’lumoti [9, P. 120] esa Tavernening kuzatuvi bilan izohlanadi: Hindiston podshohlari chet elliklarning saroyda uzoq qolishini o‘z obro‘larini oshiruvchi omil deb hisoblagan [10, P. 373–374].

Elchilarga beriladigan in’omlar miqdori maqom farqini eng aniq ko‘rsatadi. «Maosiri Olamgiriy»ning o‘zbekcha tarjimasiga ko‘ra, Xo‘ja Ahmadga «boshidan oxirigacha» bir lak yigirma ming rupiya berilgan [11, B. 38], xuddi shu yili Eron elchisi Budoq bekka esa besh lak rupiya berilgan [11, B. 37]. Ya’ni Eron elchisiga Buxoro elchisiga nisbatan qariyb to‘rt barobar ko‘p in’om berilgan. 1669-yildagi Buxoro elchisi Rustambiyga jami ikki lak, Balx elchisiga esa bir lak rupiya berilgani [12, Б. 58] Buxoro va Balx o‘rtasidagi iyerarxiyani ham ko‘rsatadi. 1671-yilda Abdulazizxonning elchisi Muhammad Sharif yigirma besh ming rupiya, oltin jabduqli ot va to‘n bilan taqdirlangan [4, P. 300]. Avrangzeb hukmronligining oxiriga kelib in’omlar keskin kamaygan: 1704-yilda Balx elchisi Xo‘ja Zohidga xil’at, javohirli xanjar va besh ming rupiya berilgan [6, P. 288].

Dissertatsiya muallifining ta’kidlashicha, hukmronligining boshida Avrangzebning xorijiy elchilarga beradigan in’omlari shunchalik saxiy bo‘lganki, hatto Markaziy Osiyoning kichik davlatlari ham elchi yuborishga qiziqqan [2, P. 162]. Taverne ham Avrangzeb «butun Osiyoda o‘zi haqida yaxshi nom tarqatish» uchun elchilarni mamnun holda qaytarishga intilganini yozadi [10, P. 373–374]. Demak, in’omlar dinamikasi diplomatik maqom bilan bir qatorda yangi hukmdorning legitimlikka bo‘lgan ehtiyojini ham aks ettirgan. Taverne Avrangzebni birinchi bo‘lib «o‘zbek tatarlari» qutlaganini qayd etadi. Bu ma’lumot Balx hokimi Subhonquli Avrangzebni tan olgan birinchi xorijiy hukmdor bo‘lgani haqidagi tadqiqot xulosasiga mos keladi [2, P. 153–155].

R. Folts N. Manuchchiga tayanib, 1662-yilda Subhonquli elchilariga sarupo berilishi orqali Avrangzeb o‘zbeklarni «tobe aholi» deb e’lon qilgan, o‘zbeklar esa bundan bexabar bo‘lgan, degan fikrni keltiradi [3, P. 136]. Bizningcha, bu talqin ehtiyotkorlik bilan qabul qilinishi lozim. Birinchidan, xil’at berish Markaziy Osiyo diplomatik an’anasida ham hurmat belgisi bo‘lgan: Jahongir Buxoro elchisi Xoja Abdurahimga o‘zi kiygan libosni yuborgan va bu alohida iltifot sifatida qabul qilingan [13, P. 150]. Ikkinchidan, xil’at Eron va Usmonli elchilariga ham berilgan: 1690–1691-yillarda Usmonli, Buxoro va Qashg‘ar elchilari birgalikda qabul qilinib, ularning barchasiga xil’at va javohirlar berilgan [6, P. 203]. Uchinchidan, Buxoro xonlari o‘z yozishmalarida o‘zlarini «xalifa» deb atagan [2, P. 171], ya’ni ular o‘zlarini Boburiylar imperatoriga tobe deb hisoblamagan. Shu sababli xil’at masalasida real tobelik haqida emas, balki ikki saroyning maqom haqidagi turlicha tasavvurlari haqida so‘z yuritish lozim.

Asr oxiriga kelib elchilik institutining o‘zi ham o‘zgarib bordi. 1698-yilda Buxoro elchisi Qutbiddin qabul kuni xil’at, o‘n ming rupiya va ikki yuz muhrlik oltin tanga olgan [6, P. 241, 264], biroq 1701-yilda qaytish chog‘ida Kobulda Boburiylar xizmatiga kirishni so‘ragan va ming zotli mansab olgan. A. Burton bu holatni Buxoro xonligidagi og‘ir ahvol bilan bog‘laydi [4, P. 360]. Bxim Sen Avrangzebning Dekandagi qarorgohiga kelgan Turon elchisini Avrangobodgacha kuzatib borish haqida farmon olganini yozadi [14, P. 176]. Bu elchilar endi imperatorning harbiy qarorgohiga qadar uzoq yo‘l bosishga majbur bo‘lganini ko‘rsatadi. Avrangzeb hukmronligining so‘nggi yillarida asosan Balxdan chopar va elchilar kelgan, ularning peshkashi o‘n ikki ot va besh xachir bilan cheklangan [6, P. 288].

XULOSA

Tahlil quyidagi xulosalarga olib keladi. Birinchidan, Avrangzeb saroyida Turon elchilarini qabul qilish aniq bosqichlardan iborat marosim asosida amalga oshirilgan va uning tafsilotlari Boburiylar solnomalari, «Olamgirnoma» qo‘lyozmasi hamda Bernye guvohligida o‘zaro tasdiqlanadi. Ikkinchidan, salom berish shakli va in’omlar miqdori Turon elchilari Eron elchilariga nisbatan quyi maqomda turganini ko‘rsatadi; Buxoro elchisi esa Balx elchisidan yuqori mavqega ega bo‘lgan. Uchinchidan, bu iyerarxiyani Buxoroning «vassalligi» deb talqin qilish Buxoro manbalari va Buxoro xonlarining «xalifa» unvoni bilan tasdiqlanmaydi; u Boburiylar saroyining o‘z siyosiy dunyoqarashini aks ettiradi. To‘rtinchidan, XVII asr oxiriga kelib in’omlar keskin kamaygan va elchilik ayrim hollarda Boburiylar xizmatiga o‘tish vositasiga aylangan. Bu ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar zaiflashuvining dastlabki belgisi edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adams W. H. D. Warriors of the Crescent. – New York: D. Appleton and Company, 1892. – 317 p.
2. Rahim A. Mughal Diplomacy from Akbar to Aurangzeb: An Account of the Foreign Relations of the Mughal Empire: PhD thesis. – London: School of Oriental and African Studies, University of London, 1932. – 108 p.
3. Foltz R. C. Mughal India and Central Asia. – Karachi: Oxford University Press, 1998. – 190 p.
4. Burton A. The Bukharans: A Dynastic, Diplomatic and Commercial History 1550–1702. – Richmond, Surrey: Curzon Press, 1997. – 664 p.
5. Halimov T. T. XVI–XVIII asrlarda Hindiston va O‘rta Osiyo xonliklari: magistrlik dissertatsiyasi. – Buxoro: BuxDU, 2014. – 110 b.
6. Saqi Must‘ad Khan. Maasir-i-’Alamgiri: A History of the Emperor Aurangzib-’Alamgir (Reign 1658–1707 A.D.) / transl. and annotated by J. Sarkar. – Calcutta: Royal Asiatic Society of Bengal, 1947. – 350 p.
7. Низамутдинов И. Г. Из истории среднеазиатско-индийских отношений (IX–XVIII вв.). – Ташкент: Узбекистан, 1969. – 146 с.
8. Kinra R. Writing Self, Writing Empire: Chandar Bhan Brahman and the Cultural World of the Indo-Persian State Secretary. – Oakland: University of California Press, 2015. – 371 p.
9. Bernier F. Travels in the Mogul Empire, A.D. 1656–1668 / transl. by A. Constable; 2nd ed., revised by V. A. Smith. – London: Oxford University Press, 1916. – 497 p.
10. Tavernier J.-B. Travels in India. – Vol. I / transl. by V. Ball. – London; New York: Macmillan and Co., 1889. – 420 p.
11. Muhammad Soqiy Musta’idxon. Maosir-i Olamgiriy / nashrga tayyorlovchi Og‘a Ahmad Ali. – Calcutta: Asiatic Society of Bengal, 1870–1873. – 530 b.
12. Muhammad Musta’idxon Soqiy. Boburiy podshoh Avrangzeb. Maosiri Olamgiriy (1658–1707-yillar tarixi) / fors tilidan tarjima, lug‘at va izohlar muallifi I. Nizomiddinov. – Toshkent: Movarounnahr, 2013. – 448 b.
13. Gladwin F. History of Jahangir / ed. with notes by K. V. Rangaswami Aiyangar. – Madras: B. G. Paul & Co., 1930. – 184 p.
14. English Translation of Tarikh-i-Dilkasha (Memoirs of Bhimsen Relating to Aurangzib’s Deccan Campaigns) / ed. V. G. Khobrekar; transl. J. Sarkar. – Bombay: Department of Archives, Government of Maharashtra, 1972. – 288 p.
15. Flynn V. J. A. An English Translation of the Adab-i-’Alamgiri: The Period before the War of Succession, Being the Letters of Prince Muhammad Aurangzib Bahadur to Muhammad Shihabu’d-din Shah Jahan: PhD thesis. – Canberra: The Australian National University, 1974. – 387 p.
16. Muhammad Kozim ibn Muhammad Amin Munshiy. Olamgirnoma: fors tilidagi qo‘lyozma. – Washington: Library of Congress. – Persian manuscript M 47. – 436 varaq.
17. Nizami K. A. Some Aspects of Religion and Politics in India during the Thirteenth Century. – Aligarh: Department of History, Muslim University, 1961. – 421 p.